

TEXNIK TOPSHIRIQNOMA



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Strategiya bosh direktori:
B.Raxmatov

**«7» avgust 2025 y.
№ 146**

Video reklama roliklarini tayyorlash bo'yicha texnik topshiriqnomma

T/r	Talablar ro'yxati	Talablar mazmuni
1.	Tashkilotchi	«Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB
2.	Buyurtmachi	«Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB
3.	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	Video reklama roliklarni tayyorlash
4.	Tanlov savdolarini o'tkazish uchun asos	O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi №684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o’tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarori hamda bank Boshqaruvining 2024-yil 4-martdagi 41-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Biznesni rivojlantirish banki» ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibi”.
5.	Xizmatlarini pudratchining mas'uliyat sohasiga o'tkazishga qo'yiladigan talablar	Shunga o'xshash ishlarni amalga oshirilgani haqida tasdiqlovchi hujjat; Xizmatni bajarish uchun yetarli mutaxassislari mavjudligi;
6.	Buyurtmachi manzili	Toshkent shahar., Alisher Navoiy ko'chasi 18 A-uy, 100011
7.	Xizmatning bat afsil tarkibi	Xizmatning yakuniy natijalari: bank xizmatlari haqida 3 ta video reklama roliklari. Har bir video roliklar televideeniye va ijtimoiy tarmoqlar uchun uchta ko'rinishda tayyorlanishi lozim: 30 soniya, 20 soniya, 10 soniya. Video roliklarga, buyurtmachi talabiga asosan o'zbek, qoraqalpoq yoki rus tillarida tayyorlanadi. Bunda, 3D va 2D elementlar buyurtmachining brend talabiga asosan individual chiziladi va animatsiya ko'rinishida rolikka joylashtiriladi. Video rolikda sur'atga olinadigan akter/aktrisalar buyurtmachi bilan kelishilishi lozim. Video rolik quyidagi tartibda tayyorlanadi:

	<p>Birinchi bosqich Etkazib beruvchi tomonidan bank xizmati mohiyatini olib beruvchi va uni bozorda mavjud bo'lgan mazmundan farqlovchi ijodiy g'oyaning 3-ta ko'rinishini ishlab chiqish. G'oya xizmatni televizor va ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilish uchun kontentni o'z ichiga olishi kerak. Buyurtmachi, taqdim etilgan g'oyalarni takomillashtirish uchun yetkazib beruvchiga qaytarish huquqiga ega.</p> <p>Ikkinci bosqich Buyurtmachi g'oyalardan birini tanlagandan so'ng, buyurtmachi talabiga asosan, o'zbek, qoraqalpoq yoki rus tillarida batafsil skript va matnlar bilan videoning syujet liniyasi tayyorlashi kerak. Video televizor va ijtimoiy tarmoqlar uchun, audio roliklar radiokanal uchun moslashtirilgan bo'lishi lozim. Buyurtmachi, taqdim etilgan materiallarni takomillashtirish uchun yetkazib beruvchiga qaytarish huquqiga ega.</p> <p>Uchinchi bosqich Reklama rolik ishlab chiqarilgandan so'ng, yetkazib beruvchi barcha tayyor materiallarni ko'rib chiqish uchun buyurtmachiga topshiradi. Agar tayyor materiallar dastlabki tasdiqlangan g'oya, ssenariy va sifat talablariga muvofiq bo'lsa, buyurtmachi materiallarni qabul qiladi, aks holda materiallarni qayta tayyorlash uchun yetkazib beruvchiga qaytaradi.</p> <p>Har bir video rolik quyidagi tarkibdagi texnika, uskuna va xizmatlardan iborat tayyorlanishi lozim:</p> <p>Sur'atga olish texnikasi: 4k sifatdagi professional kino kamera, uning ko'rsatkichlari kamida quyidagicha bo'lishi lozim: 16:9 ProRes HD 2880×1620; 16:9 RAW 2.8K 2880×2160; Dinamika diapazoni: 14; Bayonet: Titanium PL mount with L-Bus and LDS; Kodeklar: ProRes 4444XQ; 422; Kadrlash tezligi: ProRes 3.2K gacha 60fps; ProRes 4K UHD gacha 60fps; RAW 2.8K gacha 30fps; Kino-ob'ektivlar to'plami kamida 4 dona.</p> <p>Yorug'lik uskunalari quyidagicha: Yorug'lik asbobi 300 watt – rang harorati: 5600K, ± 200K; Yorug'lik asbobi 600w – rang harorati: 2800K-6500K; Yorug'lik asbobi 1200w – rang harorati 5600K; Yorug'lik asbobi 1500w – o'lchamlari: 540x280x200 mm;</p> <p>Vazni 5 kg gacha bo'lgan kameraga stabilizatori, 8x8 yorug'lik ramkasi, 12x12 yorug'lik ramkasi. Quyidagi kameraga slayderi: YC Onion HOTDOG Prlx & Pan 120sm MHD120_B. Paralaks va panoram olish imkoniyati. Eng katta gorizontal yuklama 20 kg.</p> <p>Har bir video roliklarni sur'atga olish va tayyorlashda</p>
--	--

		<p>ishtirok etishi lozim bo'lgan mutaxassislar: Tajribali rejissor: 1 kishi; Ikkilamchi rejissor: 1 kishi; Ob'ektiv fokusi bilan ishlash mutaxassisi: 1 kishi; Kamera texniki: 2 kishi; Gaffer: 1 kishi; Dekoratsiya dizayneri: 1 kishi; Sahnalashtiruvchi: 1 kishi; Operator: 1 kishi; Chiroqchi: 4 kishi; Kiyim rassimi: 1 kishi; kasting menejeri: 1 kishi; Aktyorlar: 5 kishidan 15 kishigacha; Katta sahnalar uchun aktyorlar (masovka): 5-10 kishi; Grimchi: 1 kishi; Dekoratsiya mutaxassislari: 2 kishi.</p> <p>Yetkazib berish muddati - shartnama imzolangan kundan boshlab 120 kalendar kun davomida. Xizmatni yetkazib berish shartnama imzolangan kundan boshlab 5 kun ichida boshlanishi lozim.</p>
8.	Qo'shimcha ma'lumotlar	Tanlash ishtirokchilari - tanlash predmetining xarid hujjatlari (bajariladigan ishlar) bilan tanishib chiqishga va xarid jarayonida Tanlov tashkilotchisiga xarid hujjatlari bilan tanishib chiqish yuzasidan murojat qilishga haqlidirlar. Tanlov hujjatlarida bajariladigan ishlar qiymati, narx taklifini ochiq taqdim etgan ishtirokchilar tanlovdan chetlashtiriladi.
9.	To l'ovlarni amalga oshirish	- shartnama rasmiylashtirilganidan so'ng 10% oldindan to'lov amalga oshiriladi; - bajarilgan ishlar va amalga oshirilgan xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotnomma-hisob-faktura buyurtmachi va pudrat tashkiloti tomonidan imzolangandan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida bajarilgan ishlar va xizmatlar xajmiga qarab to'lovlar bo'lib amalga oshirib boriladi.
10.	Shartnomani amal qilish muddati	Shartnama summasi to'liq foydalangunga qadar.
11.	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar to'liq bajarilganidan so'ng qabul qilish topshirish dalolatnomalari taqdim etish va ikki tomonlama imzolangandan keyin bajarilgan deb hisoblanadi
12.	G'olib tashkilot	Tanlash yakuni natijasiga aniqlanadi.
13.	Kafolat muddati	120 kalendar kun
14.	Ishtirokchilaming tashkilotchi bilan bog'lanish uchun aloqa telefonlari	(78) 150-93-39 (ichki 363) Sharof Botirov
15.	Baholash mezoni	Tanlov natijalari eng kam narx taklifi mezonlari boyicha baholanadi.

kelishuvchilar: S.Niyazov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=rT37sQ44&id=8df2557b-2d57-4c67-83ef-6a151c31da4f>